

TA'LIMNI RAQAMLASHTIRISH ORQALI DARS JARAYONIGA TATBIQ QILISHNING
SHART-SHAROITLARI

Xusayinova Go'zal Abdurasulovna

NamDU tayanch doktoranti

Qodirova Mashhura

Texnologik ta'lim 3-bosqich talabasi

Annotatsiya. Maqolada ta'limni raqamlashtirish sharoitida ta'limiy muammolarni ta'lim jarayoniga tatbiq qilishning shart-sharoitlari asoslangan. Dars turlari va har bir dars turining asosiy bosqichlarini hisobga olib, biluv muammolarini ta'limga tatbiq etish va dars turi, uning asosiy bosqichlari, dars bosqichlariga mos biluv muammolari keltirilgan.

Kalit so'zlari: raqamlashtirish, ta'limni raqamlashtirish, ta'limiy muammolarni, biluv muammolari, tatbiq qilish, dars turlari, dars bosqichlari, o'quv muammolari.

Аннотация. В статье рассмотрены условия применения образовательных задач в образовательном процессе в условиях цифровизации образования. Принимая во внимание типы курсов и основные этапы каждого типа курса, применение когнитивных проблем в образовании и тип курса, его основные этапы, даются проблемы знания, соответствующие этапам курса.

Ключевые слова: оцифровка, оцифровка образования, образовательные проблемы, когнитивные проблемы, приложения, типы уроков, этапы курса, учебные задачи.

Annotation: The article examines the conditions for the application of educational tasks in the educational process in the context of digitalization of education. Taking into account the types of courses and the main stages of each type of course, the application of cognitive problems in education and the type of course, its main stages, the problems of knowledge corresponding to the stages of the course are given.

Key words: digitization, digitization of education, educational problems, cognitive problems, applications, lesson types, course stages, learning tasks.

Tez o'zgaruvchan dunyo o'qituvchilar avlodi va talabalar avlodi o'rtasida sezilarli ziddiyat bilan ajralib turadi. Zamonaviy maktab o'quvchilari va talabalarining avlodini "raqamli avlod", "raqamli dunyoning aborigenlari" deb atash mumkin. Yoshlar tez sur'atlar bilan rivojlanib, ulkan axborot oqimlarini tezda o'zlashtirmoqdalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan ishlashni ta'minlaydigan ko'plab moslamalarni o'zlashtirmoqdalar. Keksa avlod doimiy ravishda qayta o'qitilishi va umuman o'zgargan mehnat va yashash sharoitlariga moslashishi kerak. Ta'lim vositasi ta'lim jarayoni sikllarini ajratishning bir o'lchovidir. Vosita – bu ta'lim jarayonida o'quvchi o'zi bilan o'quv materiali o'rtasiga qo'yadigan moddiy va moddiylashgan narsalardir. O'quvchining o'quv faoliyati vositasi uning o'zida. U yoki bu intellektual, shuningdek, amaliy topshiriqni bajarishda

o'quvchi o'z bilimi, hayotiy tajribasi, o'zida shakllangan aqliy mehnat usullari, o'qish vositalarini ishlatib, ta'limdan ko'zlangan maqsadga erishadi. O'qish-o'rganish vositalari to'g'ri tanlanib, ta'lim jarayonining yaqin didaktik maqsadlariga qancha mos bo'lsa, o'quvchi o'zlashtirishi shuncha samarali kechadi.

O'quvchi ta'lim sharoitida bilimlarni o'rganishdan malakalarni shakllantirishga, undan bilimlarni malaka darajasida o'zlashtirishga qarab boradi. Ta'lim jarayonining sikliyligi g'oyasidan nazoratni tushuncha darajasiga ko'tarilgan bilimlar bo'yicha o'tkazish zarurligi to'g'risidagi xulosa kelib chiqadi. SHu bilan birga har bir tsiklga bitta dars turi to'g'ri kelishi ko'zga tashlanadi. Ta'lim jarayoni sikllari va darsning o'zaro aloqadorligini hisobga olib, O.Roziqov darsning quyidagi turlarini ajratgan: ta'lim jarayonining dastlabki sikliga oid dars turi "yangi o'quv materialini o'rgatish va mustahkamlash", ikkinchi sikliga oid dars turini "takrorlash va malaka hosil qilish", uchinchi sikliga oid dars turini "bilim va malakalarni umumlashtirish", oxirgi tsikliga oid dars turini "bilim va malakalarni tekshirish" iboralari bilan qayd etgan edi. Ta'lim jarayoni sikl(davr)lari va ular asosida o'tkaziladigan dars turlarining qator o'ziga xos xususiyatlari bor. *Birinchidan, dars turida ta'lim jarayoni logikasi aks etgan. SHu tufayli ular o'zaro qo'shib yagona tizim hosil qilgan. Ta'limning bu tashkiliy shakllari tartib bilan o'tkazilgan sari o'quvchilar bilimlarni o'zlashtirishning quyi darajasidan yuqori darajasiga ko'tarila boradi.

*Ikkinchidan, yuqoridagi dars turida darslarning har biri o'z o'rnida tashkil etiladi. Boshqacha qilib aytganda, darslarning o'rnini almashtirish mumkin emas. Tasnifda darslar qanday tartibda berilgan bo'lsa, ular shu tartibda amalga oshiriladi. Dars turlari tartibiga rioya qilish natijasi o'laroq o'quvchilar oldin mavzuga oid axborotlarni egallashadi, so'ngra axborotlar ustida ishlashadi, ikki yoki undan ortiq mavzu bo'yicha o'rganilgan bilimlarni o'zlashtiradi. *Uchinchidan, dars turining har biri o'ziga oid vositalarga ega. Birinchi dars turi uchun vosita vazifasini o'quvchilarning hayotiy tajribalari, o'rganilayotgan mavzuga oid o'quvchining faoliyatidagi mavjud dalillar, o'quvchida shakllangan aqliy mehnat usullari bajarsa, ikkinchi dars turi uchun vosita vazifasida mavzu bo'yicha o'rganilgan bilim, faoliyat usullari qatnashadi.

Tavsifi keltirilayotgan tipologiyada har bir dars turining o'z markazi bor:

-birinchi dars turining yadrosini uch narsa tashkil etadi:

a) o'quvchilarni yangi mavzuni o'rganishga tayyorlash. Buning uchun o'rganilayotgan mavzu xususiyatlarini inobatga olib muammolar qo'yiladi, mavzu bo'yicha dalillar tahlil qilinadi;

b) mavzuga oid bilimlarni bevosita (masalan, o'qituvchi tushuntirishini tinglash) yoki bilvosita (masalan, dalillarni mustaqil tahlil qilib, xulosalar chiqarish, darslikda berilgan ta'rif, qoida, aniqliklarni mustaqil o'qib o'rganish) egallash;

v) o'rganilgan bilimlarni dastlabki mustahkamlash. Buning uchun darslikda berilgan mashqlar bajariladi, og'zaki yoki yozma nutq tuziladi, berilgan va tuzilgan matnlar ustida ish qilinadi;

-ikkinchi dars turining yadrosi ham uch bosqichdan iborat:

a) mavzu bo'yicha o'rganilgan bilimlarni ongli esga tushirish (o'qituvchi aytgan savollarga javob izlash, topshiriqlarni bajarish yo'llari bilan o'rganilgan bilimlarni ongli esga tushirish ta'minlanadi);

b) esga tushirilgan bilimlarni turli o'quv holatlariga tatbiq qilish. Bilimlar tatbiq qilinadigan o'quv holatlari qanchalik rang-barang bo'lsa, malakalar shuncha puxta egallanadi;

v) o'rganilgan mavzu bo'yicha bilimlarni kengaytirish, ongni dalillar bilan boyitish;
 -uchinchi dars turining yadrosi ham uch bosqichdan iborat:

a) ikki yoki undan ortiq mavzuga oid bilimlarni taqqoslash;

b) umumlashgan xulosa chiqarish;

v) chiqarilgan xulosani aytilgan yoki berilgan o'quv holatiga tatbiq qilish.

Dars turlari va har bir dars turining asosiy bosqichlarini hisobga olib, biluv muammolarini ta'limga tatbiq etishni belgilaymiz. Buning uchun dars turi, uning asosiy bosqichlari, dars bosqichlariga mos biluv muammolarini keltiramiz.

Dars turi va bosqichlariga mos biluv muammolari

Dars turlari	Dars turlarining asosiy bosqichlari	Dars turlari bosqichlariga mos biluv muammolarini ta'limga tatbiq qilish maqsadlari
Yangi o'quv materialini o'rganish va mustahkamlash darsi	1. O'quvchilarni yangi o'quv materialini o'rganishga tayyorlash.	1. O'quvchilarni yangi mavzuni o'rganishga tayyorlash.
	2. Yangi mavzuga oid axborotlarni o'rganish.	2. Mavzuga oid bilimlarni o'rganishni ta'minlash.
	3. Yangi axborotlarni dastlabki mustahkamlash.	3. Yangi axborotlarni mustahkamlash vositasi.
O'tganlarni takrorlash va malaka hosil qilish	1. Mavzuga oid bilimlarni ongli esga tushirish.	1. Bilim, faoliyat usullarini interfaol usullar vositasida esga tushirish.
	2. Bilim, faoliyat usullarini turli o'quv holatlariga tatbiq qilish.	2. Bilim, faoliyat usullarini turli o'quv holatlariga tatbiq qilish vositasi.
Bilim va malakalarni umumlashtirish	1. Ikki yoki undan ortiq mavzuga oid dalil, bilimlarni taqqoslash.	1. Ikki yoki undan ortiq mavzuga oid bilim, dalillarni esga tushirish.
	2. Umumiy xulosa chiqarish.	2. Dalil, bilimlardan umumiy xulosa chiqarish.
	3. Chiqarilgan xulosani aytilgan o'quv holatlariga tatbiq qilish.	3. Tushunchalararo biluv muammolarini bajarish.

Keltirilgan jadval bo'yicha biluv muammolarining texnologiya darslarida bajaradigan funksiyalarini tartibga tushiramiz.

O'quvchilarni yangi mavzuni o'rganishga tayyorlash uchun o'tkaziladigan biluv muammolari o'quvchilar diqqatini mavzuga oid dalillarga jalb qilish, dalillar ustida faoliyat ko'rsatish, o'rganilayotgan hodisa bo'yicha dalillarni faollashtirish, hodisaning o'rganilayotgan nuqtai nazarlarini qayd qilish uchun zarur bo'ladi. Ta'lim shu yo'sinda

tashkil etilganda ta'limning maqsadi o'quvchilar uchun ma'lum darajada aniqlashadi. Bu esa o'quvchilarni bilishga qiziqtiradi, mustaqil faoliyat ko'rsatishga yetaklaydi. Yangi mavzuni bevosita idrok etish, yangi axborotlarni qabul qilish bosqichida o'tkaziladigan biluv muammolari o'quvchilarni mavzuni ongli o'rganishga yetaklaydi. O'quvchi faoliyatining evristik-topqirlik qobiliyatini rivojlantiradi, o'quvchilarni mustaqil xulosalar chiqarishga yetaklaydi. Yangi mavzuga oid bilimlarni dastlabki mustahkamlashni mo'ljallab o'tkaziladigan biluv muammolari bilim, faoliyat usullarini yangi o'quv holatlariga faol tatbiq qilishni ta'minlaydi. O'quvchi bilim, faoliyat usullari xususida o'ylab, tatbiq qilish shartsharoitlarini tahlil qilib faoliyat ko'rsatadi. Bu bilim, faoliyat usullari bilan o'quv muammolari o'rtasida bog'lanishning hosil bo'lishiga, mavzu doirasida ko'nikmaning shakllanishiga olib keladi. SHunday qilib, dastlabki dars turida o'quvchilarni mavzuni o'rganishga tayyorlash, mavzuga oid bilimlarni bevosita idrok etish, idrok etilgan bilimlarni ilk bor mustahkamlash maqsadida tashkil etilgan biluv muammolari faol ta'limni amalga oshirishning samarali vositasiga aylanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Очилов М. О. Таълим-тарбия мақсадларини оддийлаштириш технологияси //Ж. Педагогик маҳорат. 2002. 2-сон. –Б. 19–22.
2. Розиков О. Основы оптимального применения системы учебных задач в обучении. –Т.: “Ўқитувчи”, 1981. – 103 с
3. Zarif Umurov. (2020). Technology for preparing educational and cognitive problems for primary school students. International Journal of Advanced Science and Technology, 29(05), 1465 - 1471. Retrieved from <http://serisc.org/journals/index.php/IJAST/article/view/10050>